# QADIMGI SPORT O‘YINLARIDA JAMOAVIYLIK VA INDIVIDUALLIK KATEGORIYALARINING SHAKLLANISHI, HOZIRGI ZAMON SPORT O‘YINLARIDA ETNIK XUSUSIYATLAR

**Xamroyev Behruz Xalimovich,**
*Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi dotsenti*
*+998972806000 Email:bexruzxamroyev1107@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi sport o‘yinlarida jamoaviylik va individuallik kategoriyalarining shakllanishi, hozirgi zamon sport o‘yinlarida etnik xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qadimgi Sharq, Gomer, Olimpiya, Rossiya, Malayziya, Braziliya, Etnosport, stadion, ippodrom, palestra.

**Annotation:** This article discusses the formation of categories of collectiveness and individuality in ancient sports, ethnic characteristics in modern sports.

**Key words:** Ancient East, Homer, Olympia, Russia, Malaysia, Brazil, Ethnosport, stadium, hippodrome, palestra.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование категорий коллективности и индивидуальности в древних видах спорта, этнические особенности в современном спорте.

**Ключевые слова:** Древний Восток, Гомер, Олимпия, Россия, Малайзия, Бразилия, Этноспорт, стадион, ипподром, Палестра.

## KIRISH

Jismoniy tarbiya va sport tarixi qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning vujudga kelish xususuyatlarini o‘rganishdan boshlanadi. Qadimgi dunyo jismoniy tarbiyasi deganda, insoniyat bosib o‘tgan ikki tarixiy-ijtimoiy davr – ibtidoiy jamoa tuzumi va quldorlik tuzumi jismoniy tarbiyasi tushuniladi. Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya miloddan avvalgi IV-III asrlarda ilk davlatlar paydo bo‘lgan. Bu davrlarda yirik davlatlar asosan qadimgi Sharqda, Gretsiya va Rimda bunyod etilgan. Qadimgi Sharq hududidagi Misr, Eron, Bobil, Ossuriya, Hindiston, Xitoy kabi davlatlardagi jismoniy tarbiya vositalarining xilma-xilligi haqida haykallar qurilish yodgorliklaridagi devoriy suratlar, turli madaniy ashyolar, qo‘lyozmalar guvohlik beradi. Miloddan avvalgi IV asrlarda O‘rta yer dengizi atrofida vujudga kelgan davlatlarda jismoniy madaniyatning ilk namunalari paydo bo‘lgan. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakllari harbiy faoliyatlarda o‘z ifodasini topgan. Bunda, asosan, kamonda merganlik, bel ushlashib kurashish, mushtlashish, g’ildirakli aravalarda poyga qilish va merganlik san’ati kabi faoliyatlar muhim



ISSN 3030-3907

o‘rinni egallagan. Parfiyonlar, skiflar, eroniylar, arablar o‘z ommaviy o‘yin va an’analarini messopotamiyaliklardan o‘rganganlar. Hindlar va eroniylar hayotida ham turli tuman jismoniy mashqlar va o‘yinlar vujudga kelgan[Андреев, 1957:167]. Ular tarkibida otda (tuyada, xachir va h.k.) yurish va ov qilish, qilichbozlik, aravachalarda poyga, kamondan o‘q otish, to‘plar va tayoqlar bilan o‘ynash keng rivojlangan. Qadimgi Eronda maxsus tashkil qilingan maktablarda zodagon yoshlarni tarbiyalash tizimi mavjud bo'lgan. Bunda yuqorida tilga olingan mashqlarni (nayza sanchish, qilich ishlatish, otdan ag'darish) o'rgatish dastur asosida olib borilgan. Qadimgi Misrda harbiy aslzodalarni harbiy-jismoniy jihatdan maxsus tayyorlash uchun kurash, qilchbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish kabi mashqlardan foydalanishgan. Buni miloddan avvalgi XVIII-XII asrlarda Beni-Gassan degan joydagi fir’avnlar qabristonidan topilgan yodgorliklarda tasvirlangan 400dan ortiq jismoniy mashqlar va o‘yinlar haqida guvohlik beradi. Misr davlatida dinlarning ko‘pligi tufayli ularning xudolariga hamda urf-odatlariga bag’ishlangan ko‘pgina bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalari o‘yinlar va raqslar bilan birga qo‘shib olib borilgan. Keyinchalik ulardan ko‘proq g’oyaviy maqsadda foydalanilgan. Hukmron doiralar xalq o‘yinlari va jismoniy mashqlardan o‘z kamoloti va manfaatlari yo‘lida foydalanganlar. Qadimgi Sharq davlatlarida quldorlik tuzumi davrida ozod dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdo-tijorat xodimlari orasida rasm bo'lgan xalq jismoniy tarbiyasi shakllari va xalq mashqlarining turlari quldorlar tomonidan o‘z obro‘yi hamda hukmronligini kuchaytirish maqsadida o‘zlashtirilgan va ulardan keng foydalanilgan[Абдулаҳатов, 2010:65].

## ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Gomerning «Iliada» asarida tasvirlanishicha, Troya urushida halok bo‘lgan Patrokl xotirasiga bag’ishlanib, uning do‘sti Axill aravalar qo‘shilgan otlar poygasi, mushtlashish, kurash, yugurish, kamondan o‘q otish, nayza va disk uloqtirish bo‘yicha musobaqa o‘tkazgan. Olimpiya qishlog’i muhim madaniy tadbirlar o‘tkazish markaziga aylangan. Bu yerda miloddan avvalgi VII asrning ikkinchi yarmida Gera xudosiga bag’ishlangan ibodatxona Yer onasiga bag'ishlab katta ibodatxona qurilgan. Keyinchalik esa, ya'ni 200 yilda, greklarning Olimpiya qishlog'idan eronlar ustidan g’alaba qilishiga bag’ishlab Zevs xudosi sharafiga katta namoyish markazi qurilgan. Bu joyda Elida davlati oliy kengashi binosi joylashgan. Olimpiya shaharchasida juda ko‘p ibodatxonalar, ularda son-sanoqsiz haykallar mavjud bo‘lib, ular turli xudolar, afsonaviy qahramonlar, Olimpiya o‘yinlari g’oliblari, podsholar, sarkardalarga bag’ishlangan. Bu joyda boshqa turli xil



ISSN 3030-3907

madaniy, qurilish maskanlari qatorida sport inshootlari majmuasi ham joylashtirilgan. Bunda stadion, ippodrom, palestra binolari mavjud bo‘lgan. Dastlab, Olimpiya o‘yinlarining ilk bor tashkil etilishi greklarining bosh xudosi Zevsning o‘z otasi Kronos ustidan qozongan g’alabasi sharafiga bag’ishlab katta an’anaviy bayramlar o‘tkazishi bilan bog’liq bo‘lib, ular Olimpiya o‘yinlari deb atalgan. Spartada bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalangan. Bu davrda ularni qorong’udan qo‘rqmaslik, sovuqqa, tashnalikka ochlikka chidashga o‘rgatganlar va chiniqtirishga katta ahamiyat berganlar. 7 yoshdan 14 yoshgacha bolalar va o'smirlar davlat tizimidagi tarbiya muassasalarida asosan jismoniy tarbiya bilan shug’ullanganlar. Ularni sovuq va ochlikka bardosh berish, chaqqonlik va og’riqlarga chidash kabi faoliyatlarga o‘rgatib, chiniqtirganlar. Yoshlarni nayza va disk uloqtirish, yugurish, sakrash, kurash va harbiy o‘yinlar, yovvoyi hayvonlarni ovlashga orgatganlar. Qo‘shiq aytish, musiqa va raqs kabi sohalarga ham ko‘p vaqt ajratilgan. Davlat tomonidan belgilangan rahbarlar (pedonom) yosh spartiatlarni mardlik, jasorat, qullarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalaganlar. Shu maqsadda kechalari qullarga qarshi hujumlar, bosqinlar uyushtirganlar, shubhali qullarni o‘ldirishgan. Sparta tizimida qizlarni jismoniy tarbiyasiga ham katta e’tibor qaratilgan. Sog’lom bolalarni dunyoga keltirib, ularni sog'lom qilib o‘stirish uchun oilalar ham o‘ta sog’lom bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Shu sababli ham qiz bolalarni yugurish, kurash, nayza va lappak uloqtirish kabi mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullantirishgan. Sparta xotin-qizlari ko'proq qullarni saqlashda xizmat qilganlar. Sparta davlati tarbiya tizimini va harbiy sohadagi eng kuchli qismi Gretsiyada tashkil etilgan. Ular uzoq yillar davomida yengilmas deb nom qozondi. Sparta atletikachilari ko'pgina olimpiya, pif va boshqa o‘yinlarda qatnashib, g’alabalarni qo‘lga kiritgan. Miloddan avvalgi XII-IX asrlarda qadimgi Gretsiyada oddiy zodagonlarning yugurish, kurash, qo‘l jangi, nayza va disk uloqtirish, kamondan o‘q otish, g’ildirakli aravalarda ot poygasi kabi o‘yin musobaqalarini aks ettiruvchi chizmalar, tasvirlar, haykallar, yodgorliklar, arxeologik qazilmalarda topilgan. Ularning mazmuni, shakllari va mohiyatlari Gomerning «Iliada» va «Odisseya» asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Dunyoda “An'anaviy o‘yinlar” tushunchasi keng qo‘llaniladi va jismoniy faoliyatning turli xil an’anaviy turlarini o‘z ichiga oladi. YUNESKO tomonidan an’anaviy o‘yinlar insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida e’lon qilingan bo‘lib, ular etnik-madaniy o‘ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni qayta tiklashga xizmat qiladi. Etnosport – bu jismoniy faoliyatning an’anaviy turlari, jumladan, milliy sport turlari va mahalliy xalqlarning an’anaviy o‘yinlarini o‘zida



ISSN 3030-3907

mujassam etgan yangi institutsional shakl bo‘lib, ular millliy qadriyatlar sifatida hamma joyda qayta tiklanmoqda.

Etnosport – an'anaviy o'yinlar va musobaqalarni saqlab qolish uchun xizmat qiladigan zamonaviy xalq sport turidir. Madaniyatshunos Aleksey Kylasov tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, etnosport deganda (qadimgi yunoncha "etnos" (xalq) va "sport" so‘zlaridan) etnosport nazariyasida tasvirlangan jismoniy faoliyatning an'anaviy turlari, ularni saqlash va rivojlantirish usullari to'plami tushuniladi. “Etnosport” tushunchasi 2010-yilda an’anaviy o‘yinlar va musobaqalar turnirlarining zamonaviy (folklor) shaklini tavsiflash uchun ilmiy muomalaga kiritildi. “Etnosport” leksigrammasida “sport” komponentining qo‘llanilishi zamonaviy o‘yin madaniyatida sportning chuqur o‘rin olganligi bilan bog‘liq. Etnosport turlariga an'anaviy sport turlari, xalq o'yinlari kiradi va bu jismoniy faoliyat turlari insoniyatning madaniy merosini saqlashda katta rol o'ynaydi. Dunyodagi har bir etnik guruh ko'p asrlik o'yin madaniyati asosida o'ziga xos bo‘lgan etnosport turlarini yaratadi. Bunday sport turlarini rivojlantirish YUNESKOning madaniy xilma-xillikni targ‘ib qilish, madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash bo‘yicha faoliyati va dasturlariga hamohangdir. Dunyoda etnosport turlarini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2012-yilda Monrealda (Kanada) ikki tashkilot – Kanada Etnosport jamiyati va 2011-yilda tuzilgan dunyodagi birinchi etnosport tashkiloti – Rossiya an’anaviy o‘yinlar va etnosport federatsiyasi tomonidan Butunjahon etnosport jamiyati tashkil etildi. 2018-yilda Butunjahon etnosporti (World Ethnosport) shtab-kvartirasi Riga (Latviya) shahriga ko‘chirildi[Боровков, 1927:45].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI(RESEARCH METHODOLOGY)

Milliy sport va o'yinlar jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash natijalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sport bilan shug'ullanish va yaxlit rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik keng e'tirof etilgan. Ushbu maqola milliy sportning jismoniy farovonlikka ko'p qirrali ta'siri haqida tushuncha olish uchun mavjud adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganishga qaratilgan. Jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish: Milliy sport va o'yinlar ko'pincha umumiy jismoniy tayyorgarlikka hissa qo'shadigan trli xil jismoniy faoliyatni o'z ichiga oladi. Ushbu sport turlari bilan shug'ullanish odamlarga yurak-qon tomir salomatligi, kuch, moslashuvchanlik va chidamlilikni rivojlantirish va saqlashga yordam beradi. Malakalarni Rivojlantirish: Milliy sport turlari va o'yinlarda ishtirok etish shaxslarga sport bilan bog'liq aniq ko'nikmalarni egallash va oshirish imkonini beradi. Bunga hayotning boshqa



ISSN 3030-3907

sohalariga o'tkaziladigan qo'l-ko'zni muvofiqlashtirish, chaqqonlik, tezlik va strategik fikrlash kabi ko'nikmalar kiradi. Jamoaviy ish va hamkorlik:- Ko'pgina milliy sport turlari jamoaviy bo'lib, futbolchilardan umumiy maqsad sari birgalikda ishlashni talab qiladi. Bu jamoaviy ish, muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi, shaxslarga guruh ichida qanday qilib samarali ishlashni o'rgatadi. Butunjahon etnosporti YUNESKOning an'anaviy o'yinlar va sport turlari bo'yicha turli loyihalari – An'anaviy o'yinlar va sport bo'yicha maslahatchilar qo'mitasi, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining (CIGEPS) Doimiy maslahat kengashi bilan hamkorlik qiladi. Mazkur tashkilot YUNESKOning II toifadagi institutlari – YUNESKOning Ko'chmanchi sivilizatsiyalarni o'rganish xalqaro instituti (Mo'g'uliston) va YUNESKO/Tencent ochiq raqamli an'anaviy o'yinlar kutubxonasi (Xitoy) bilan qo'shma dasturlarni ham amalga oshiradi. Butunjahon etnosportining asosiy tadbir loyihasi – Butunjahon Etnosport Challenge turnirlari – etnik nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish maqsadida mahalliy an'anaviy o'yinlar qoidalari va jihozlariga muvofiq taniqli sportchilar ishtirokida muntazam ravishda o'tkaziladigan xalqaro musobaqalardir. "Ethnosport Challenge" turnirlari, birinchi navbatda, xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar an'analari tarixan shakllangan Ipak yo'li bo'ylab madaniy aloqalarni saqlab qolishga qaratilgan[Валихонова, 2013:114.]. Loyiha 2018-yilda boshlangan va allaqachon to'rtta turnirga mezbonlik qilgan – Rossiya, Malayziya, Braziliya va Litvada. Butunjahon etnosporti barcha qit'alardagi 48 mamlakat olimlari, an'anaviy o'yinlar va etnosport tadbirlari tashkilotchilarini birlashtiradi. 2015-yil 7-sentabrda Qirg'iziston va Turkiya tashabbusi bilan Yevroosiyo davlatlarining etnik, an'anaviy va milliy sport turlari federatsiyalarini ("Kavkaz o'yinlari", "Erdin o'yinlari", "Maanchari o'yinlari", "Salburun" va boshqalar) o'z ichiga olgan Butunjahon etnosport konfederatsiyasi tashkil etildi. Ayni paytda Jahon etnosport konfederatsiyasiga Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Ozarbayjon, Mo'g'uliston, Vengriya, Gruziya, Rossiya, Argentina, Yaponiya, Meksika, Polsha, Qatar, Ruminiya, Tunis, Litva kabi 16 davlat a'zo. Qadimiy qadriyatlarimiz – xalq o'yinlari va milliy sport turlariga hukumat darajasida e'tibor qaratilayotganini ham e'tirof etish lozim. 2019-yilning noyabr oyida O'zbekiston poytaxtida Butunjahon etnosport kengashi va Butunjahon Strongmen federatsiyasi (WSF) kengashining qo'shma yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda tuzilgan ittifoq doirasidagi hamkorlik rejalari tasdiqlandi. 2019-yil dekabr oyida Bogota shahrida (Kolumbiya) bo'lib o'tgan YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Hukumatlararo qo'mitasining 14-sessiyasi yig'ilishida Konvensiyani amalga



ISSN 3030-3907

oshirish bo‘yicha maslahat hamkori sifatida Jahon etnosportini akkreditatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Olingan maqom doirasida O‘zbekiston Butunjahon etnosport faoliyati markaziga aylandi.

O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi hamkorlik dasturiga kiritilgan hamkorlik shartnomalari tuzildi. 2020-yilda Xiva “Turk dunyosi madaniyati poytaxti” deb e’lon qilindi. Mazkur qadimiy shaharda har yili Butunjahon bahodirlar o‘yinlari federatsiyasi (WSF) ko‘magida Pahlavon Mahmud nomini abadiylashtirish maqsadida “Bahodirlar o‘yinlari” xalqaro turniri o‘tkaziladi. Turnir o‘zbek xalqining buyuk farzandi, o‘z davrida Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon, Afg‘oniston va Hindistonda mashhur kurashchi, ustoz, faylasuf va so‘fiy bo‘lgan Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlab tashkil etiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-iyundagi “Kamondan otish sportini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni O‘zbekistonda etnosportni rivojlantirish yo‘lidagi navbatdagi muhim qadam. bo‘ldi. Hujjatda Toshkent shahrida “Alpomish va Barchinoy” xalqaro turniri, Samarqandda xotin-qizlar o‘rtasida “To‘maris kubogi”, Buxoro, Qo‘qon, Samarqand va Xiva shaharlarida Turizm va viloyat markazlarida kamonchilar uchun kamondan otish haftaligini o‘tkazish, sport bazasini tashkil etish ko‘zda tutilgan. 2021-yil 8-oktyabrda Toshkent shahrida “O‘zbekistonda etnosportning rivojlanish istiqbollari” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonda milliy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslardan biri va nomoddiy madaniy merosni asrash, shuningdek, aholi orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va ommalashtirish sohasidagi asosiy masalalardan biridir. Shu maqsadda tashkil etilgan xalqaro konferensiya “O‘zbekistonni etnosport va milliy qadriyatlar orqali kashf eting!” shiori ostida o‘tkazildi. Makur xalqaro konferensiyada O‘zbekiston Etnosport assotsiatsiyasi tashkil etilganligi barchaga ma’lum qilindi. O‘zbekiston etnosport assotsiatsiyasi 2021-yil 6-oktyabrda Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazildi. Milliy va an’anaviy sport turlarini, xalq o‘yinlarini tiklash, rivojlantirish, ularning yagona tartib-qoidalarini ishlab chiqish hamda tatbiq etish, shuningdek aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ham Etnosport assotsiatsiyasining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-sonli Farmoniga muvofiq, bir nechta ixtisoslashtirilgan



ISSN 3030-3907

muassasalar vakillari, shu jumladan Jangchi-polvonlar milliy markazi, O‘zbekiston uloq-ko‘pkari federatsiyasi, O‘zbekiston kamar va uchkurash uyushmasi, Kamondan otish milliy federatsiyasi va Belbog‘li kurash sport federatsiyasi o‘rtasida mamlakatimizda Milliy etnosport uyushmasini tashkil etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6099-son Farmoniga muvofiq, respublika hududlarida ekspeditsiya tashkil qilgan holda milliy sport turlari hamda xalq o‘yinlari tarixini o‘rganish asosida “O‘zbekiston Respublikasi milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ensiklopediyasi”ni tayyorlash va chop etish maqsadida qator tashkilotlar hamkorligida qo‘shma qaror qabul qilingan edi. Milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ensiklopediyasini yaratishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, qadimdan bizgacha yetib kelgan milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini keng jamoatchilik, xususan xorijlik sayyohlarga namoyish etish va bu orqali milliy o‘yinlarimiz va sport turlarini xalqaro miqyosiga olib chiqishdan iborat.

“Barg koshanak” o‘yini mavsumiy o‘yinlar sirasiga kirib, asosan, bog‘dorchilik xo‘jaligi yaxshi rivojlangan hududlarda keng tarqalgan, asosan, daraxt bargining to‘liq yozilgan paytlarida o‘ynaladi. Bu o‘yinda ko‘proq qiz bolalar ishtirok etib, guruhlarga bo‘linadilar, guruhlarga boshlovchi tomonidan ma’lum bir belgi qo‘yilgan barglarni uzib olib kelish kerak bo‘ladi. Qaysi barglarni olish o‘yin boshqaruvchisi tomonidan yashirin holda avvaldan belgilab qo‘yiladi. Belgilangan barglarni topib olib kelgan qizlar g‘olib hisoblanadilar. Mazkur o‘yin yoshlarda topqirlik tuyg‘usini shaklanttiradi. “Parbozi” (asosan kech kuz oylarida o‘ynaladi) – bu o‘yinda ro‘molcha uchiga xazon solib, tugun hosil qilinadi. Bu tugulgan ro‘molchani, huddi echki yoki qo‘yi terisidan olib tayyorlangan parni oyoqni aylantirib tepish qoidasiga o‘xshab ketadi. Kim ko‘p marta tepa olsa, u g‘olib. “Xonadaroyak” o‘yinida oddiy to‘rtburchakli belgini sakkizga bo‘lib, ushbu bo‘lingan burchaklarga ma’lum bir harakatlar asosidagi sakrashlar amalga oshiriladi. Bu o‘yin yosh bolalardagi oyoq muskullarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Lappakbozi” (o‘zbekcha lappak) deb nomlanuvchi o‘yinda lappak (tosh yoki sopol parchasi) shunday tepilishi kerakki, parcha teng bo‘lingan to‘rtburchak kataklardan chiqib ketmasligi kerak. O‘yin bolalarda mo‘ljalni to‘g‘ri olish qobiliyati shakllanishiga yordam beradi. Bu o‘zbek, tojik millati aholisi orasida ikki xil tilda nomlansa-da, amal qilish tartibi derli bir xil. “Botir cho‘pon” o‘yini. U asosan, chorvador aholi bolalari orasida keng tarqalgan o‘yinlardan biri bo‘lib, o‘zbek bolalari orasida ommaviylashgan “Yashin topaloq” o‘yiniga o‘xshab ketadi.



ISSN 3030-3907

Lekin ishtirokchilar soni kamligi, o‘yin o‘tkazish maydonining tuzilishi, o‘yinning tartib-qoidlaridagi o‘ziga xoslik aynan chorvador aholiga tegishli ekanligini belgilaydi. “Oq so‘ngak o‘yini” ko‘proq yoz va kuz fasllarida keng tarqalgan qirg‘iz bolalarning sevimli o‘yinlaridan biri bo‘lib, to‘y yoki ma’lum marosimlarda, asosan, tunda o‘ynaladi. O‘yin boshlanishida boshlovchi tomonidan qo‘y, echki yoki qoramol boldir suyagi tanlab olinib, ishtirokchilarga o‘yin tartibi, shartlari tushuntiriladi va belgilangan sovrinmukofot e’lon qilinib, suyakni xohlagan tarafiga irg‘itadi. Suyakni topib olgan bola qolgan ishtirokchilar ta’qibidan qochib, boshlovchi qo‘liga tutqazsa, u g‘olib hisoblanadi va sovrin egasiga aylanadi. (O‘yin o‘zbek bolalarining quloq cho‘zma o‘yiniga mazmunan o‘xshab ketadi. Faqat predmet ishtiroki boshqa). Ushbu o‘yinning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o‘smir yoshlar o‘rtasida abjirlik, topqirlik, chapdastlik kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

2022-yilda O'zbekiston xalq o'yinlari va milliy sport turlarining tarixi, qonunqoidalarini o'zida aks ettirgan “O‘zbekiston Respublikasi milliy sport turlari va xalq o‘yinlari entsiklopediyasi” chop etildi. Mazkur ensiklopediya 2 qismdan iborat bo‘lib, unga jami 82 ta milliy xalq o‘yinlarining kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlari haqidagi ma’lumotlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida kiritilgan. Kitobning 1-qismida milliy sport turlari va ularning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan sulolaviy sportchilar haqida so‘z yuritilgan bo‘lsa, 2-qismda milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida hikoya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-201-son qarori bilan 2023-yil 1-martdan boshlab milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi joriy qilinadi. 2022-yil 25-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini (etnosport) targ‘ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o‘smirlarni ularga keng jalb qilish maqsadida, mazkur qaror asosida Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi hamda mazkur dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Mazkur qarorda barcha ta’lim muassasalarida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining mohiyati va ularning jismoniy, intellektual, ma’naviy-axloqiy jihatdan o‘rni haqida tushunchalar berib borilishi ham ko‘rsatib o‘tildi. “Podachi o‘yini” uchun to‘rt qadamga teng doira chiziladi. U ohak yoki bo‘r bilan belgilanadi. Doira ichida uchta o‘yinchi qo‘lida chin cho‘pon tayog‘ini tutganicha turadi. Doira tashqarisida ham hujumchilar uch



ISSN 3030-3907

joyda joylashadi. Doiraning o‘rtasida yog‘ochdan yasalgan beshta nishon tayinlanadi. Balandligi olti sm. Ular doiraning markazida tikka qilib qo‘yiladi. Nishonlarning oralig‘i 10-15 sm bo‘lib, aylana shaklida terib chiqiladi. O‘yinda doira tashqarisidan birmetrlik uzoqlikda hujumchilar tomonidan kichik to‘pi bir-biriga tez oshirilib, qulay fursat topilgach, doira ichidagi himoyachilarni chalg‘itib, doira o‘rtasidagi nishonlarni birin-ketin urib yiqitishga harakat qilinadi. O‘yinda himoyachilar doiradan chiqib ketmaydi. Himoyadagi o‘yinchilarning tayog‘i hujumchilarga tegib ketsa, himoyachi doira chizig‘idan tashqariga chiqsa, jarima belgilanadi. Doira chetidagi chiziqqa koptok qo‘yilib, o‘rtadagi nishonni bir marta urishga ruxsat beriladi. Himoyachilar doira chizig‘iga koptokni qo‘yib, zarb bilan tashqariga, uzoqroqqa, urib chiqaradi. O‘yin paytida guruhlardan qaysi biri 30 soniya ichida nishonni koptok bilan urib yiqitsa, shu guruh g‘olib hisoblanadi. O‘yinchilarning roziligi bilan o‘rinlarini almashtirib, o‘yinni davom ettirish mumkin. Bolalar o‘rtasidagi “uloq” o‘yini ommaviy xalq o‘yinlarining eng keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, katta yoshdagilarning ot ishtirokidagi o‘yiniga taqlid holatida vujudga kelgan. Mazkur uloq o‘yini unsurlari hisoblangan ot va uloq bolalarga mos bo‘lib, ot va qamchi novdadan, uloq esa echki yoki qo‘y terisidan tayyorlanadi. Bu o‘yin etnohududiy xarakteriga ko‘ra, marrali, marrasiz turlarga bo‘linadi [Валихонова, 2013:113-114].

O‘zbekiston etnosport assotsiatsiyasiga aholining barcha qatlamlarini etnosport bilan shug‘ullanishga jalb qilish, mahallalarda etnosport turlari bo‘yicha xalq o‘yinlari va musobaqalarni o‘tkazish hamda Butunjahon etnosport konfederatsiyasi bilan hamkorlikni kuchaytirish vazifalari topshirildi. “Ichan qal’a” majmuasi hamda uning atrofidagi maydonlarda belbog‘li kurash bo‘yicha xalqaro turnir, o‘zbek jang san’ati, mass resling, bahodirlar o‘yini va tosh ko‘tarish bo‘yicha jahon chempionatlari, kamondan otish bo‘yicha xalqaro ochiq turniri, milliy kurash, bel olish va uch kurash, Turon yakkakurashi, qushlar ovi va ot sporti turlari bo‘yicha ko‘rgazmalar, mohir oshpazlar ishtirokida osh chempionati, milliy ovqatlar va qovun sayli kabi tadbirlar o‘tkazildi. Shuningdek, Butunjahon etnosport konfederatsiyasining “Meros bilan bog‘langan, etnosport bilan birlashgan” shiori ostida etnosport sammiti, Butunjahon etnosport konfederatsiyasi Ijroiya qo‘mitasi a’zolarining uchrashuvi va Xalqaro etnosport festivali paradi ham tashkil etildi. Tadbir doirasida etnosport turlarini rivojlantirish va yanada ommalashtirish bo‘yicha forum, osh pishirish musobaqasi, qovun sayli, hunarmandchilik mahsulotlari hamda san’at asarlaridan ko‘rgazma, “Bahodirlar o‘yini” musobaqasi, 6 ta sport turi



ISSN 3030-3907

bo‘yicha ko‘rgazmali chiqishlar, 12 ta milliy xalq o‘yinlari bo‘yicha ko‘rgazmali o‘yinlar tashkil etildi[Шаниязов, 1964:312].

## XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS)

Darhaqiqat, milliy sport turlari va xalq o‘yinlari o‘ziga xos qadriyat sifatida avlodlardan avlodlarga o‘tib boradi. Ularni ardoqlagan yoshlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usi qaror topadi, milliy ruh shakllanib, xalqimizning an'ana va urfodatlarini e'zozlash hissi yanada kuchayadi. Xullas, milliy o‘yinlar yoshlarni o‘zbekona tarbiyalashning eng ta'sirchan vositalaridan biridir. Bu o‘yinlar qanchalik keng yoyilsa, vatanparvar yoshlar safi shunchalik kengayadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. ”Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi”.Toshkent. O’zbekiston.2019.-B 125.

2. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Вып. 1. – Сталинабад, 1957. – С.112-113.; Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки... – С.167-168.

3. Абдулаҳатов Н. Ғозиев Т. Бурхониддин Марғиноний: тарихий ҳақиқат ва асотирлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б.268.

4. Боровков А.К. Игры узбекских детей // Сб. научн. кружка при Востфаке САГУ. Вып.1. – Ташкент, 1927. – С.41.

5. Валихонова Г.Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Янги нашр, 2013. – Б.113-114.

6. Гумелев Л.Н. Қадимги турклар. – Т.: 2007. – Б.76.

7. Исҳоқов Б.Б. Болалар ўйинларининг этнографик хусусиятлари... – Б. 249.

8. Кубаков К.К. Детские игры и увеселения узбеков (на материалах Самаркандской и Джизакской областей). // Вопросы археологии, древней истории и этнографии. Самарканд, 1981. – С 35.

9. Муҳаммадиев Л. Соғинтирган халқ ўйинлари ... – Б.16.

10. Усмонхўжаев Т.С., Хўжаева.Ф. Минг бир ўйин... – Б.78.

11. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. Историко-этнографический очерк, - Ташкент, 1964; с-342.



ISSN 3030-3907